



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN FOYDALANISHDA EKOLOGIK ADOLAT TAMOYILINING FALSAFIY ASOSLARI

Abdurahimov Behzodjon Bahromjon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi

Tel: +998 94 499 1994

E-mail: behzodjonabdurahimov1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada transchegaraviy gidroresurlardan foydalanishda ekologik adolat tamoyilining falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Suv resurslarining global miqyosda kamayib borishi, iqlim o'zgarishi va ekologik xavfsizlik bilan bog'liq muammolar sharoitida ekologik adolat konsepsiyasining ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda suv etikasi, avlodlararo mas'uliyat, ekologik ong va barqaror rivojlanish tamoyillarining nazariy jihatlarini yoritilgan. Muallif transchegaraviy gidroresurlarni boshqarishda ekologik adolat tamoyili davlatlararo hamkorlikning muhim ma'naviy asosi ekanligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ekologik adolat, transchegaraviy gidroresurslar, suv etikasi, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, ekologik ong, avlodlararo mas'uliyat.

Аннотация: В данной статье анализируются философские основы принципа экологической справедливости в использовании трансграничных водных ресурсов. Раскрывается важность концепции экологической справедливости в контексте глобального истощения водных ресурсов, изменения климата и проблем экологической безопасности. Исследование охватывает теоретические аспекты принципов водной этики, межпоколенческой ответственности, экологической осведомленности и устойчивого развития. Автор утверждает, что принцип экологической справедливости в управлении трансграничными водными ресурсами является важной моральной основой для межгосударственного сотрудничества.

Ключевые слова: экологическая справедливость, трансграничные водные ресурсы, водная этика, экологическая безопасность, устойчивое развитие, экологическая осведомленность, межпоколенческая ответственность.

Abstract: This article analyzes the philosophical foundations of the principle of environmental justice in the use of transboundary water resources. The importance of the concept of environmental justice in the context of global water resource depletion, climate change and environmental security problems is revealed. The study covers the theoretical aspects of the principles of water ethics, intergenerational responsibility, environmental awareness and sustainable development. The author argues that the principle of environmental justice in the management of transboundary water resources is an important moral basis for interstate cooperation.

Keywords: environmental justice, transboundary water resources, water ethics, environmental security, sustainable development, environmental awareness, intergenerational responsibility.

Bugungi globallashuv sharoitida suv resurslari insoniyat taraqqiyotining strategik omillaridan biriga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining ortishi va iqlim o'zgarishi natijasida kelajakda suv taqchilligi yanada kuchayishi prognoz qilinmoqda[1]. Ayniqsa, bir nechta davlat hududidan oqib o'tuvchi daryo va ko'llar bilan bog'liq transchegaraviy gidroresurslar masalasi xalqaro munosabatlarning muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb global muammolardan biri tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasidir. Ayniqsa, suv resurslarining cheklanganligi, iqlim o'zgarishi, aholi sonining ortib borishi hamda sanoatlashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida chuchuk suv manbalariga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda[2]. Bunday sharoitda transchegaraviy gidroresurslardan foydalanish masalasi nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki ekologik, huquqiy hamda falsafiy muammoga aylanmoqda.

Transchegaraviy gidroresurslar deganda ikki yoki undan ortiq davlat hududidan oqib o'tuvchi yoki bir nechta mamlakatlar tomonidan foydalaniladigan daryo, ko'l va yer osti suv havzalari tushuniladi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha 300 ga yaqin xalqaro daryo havzalari mavjud bo'lib, ular Yer yuzasi quruqlik maydonining qariyb yarmiga yaqin qismini qamrab oladi. Mazkur suv havzalaridan foydalanish masalasi ko'plab mamlakatlar uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Shu sababli suv resurslarini boshqarishda davlatlar manfaatlari, ekologik barqarorlik va kelajak avlodlar ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim vazifaga aylanmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi transchegaraviy gidroresurslar bilan bog'liq masalalar eng dolzarb hududlardan biri hisoblanadi[3]. Amudaryo va Sirdaryo havzalari mintaqa mamlakatlari iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi, energetika tizimi va ekologik barqarorligining asosiy omillaridan biri sanaladi. Mazkur daryolardan foydalanish bilan bog'liq manfaatlar ayrim hollarda davlatlar o'rtasida qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirishi mumkin[4]. Shu jihatdan suv resurslarini boshqarishda faqat siyosiy yoki huquqiy mexanizmlar emas, balki umumiy ma'naviy qadriyatlar va ekologik adolat tamoyillariga asoslangan yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik adolat zamonaviy ekologik falsafaning muhim kategoriyalaridan biri bo'lib, u tabiiy resurslardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan manfaat va mas'uliyatning adolatli taqsimlanishini anglatadi. Ushbu tamoyil inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga, ekologik muammolarni faqat iqtisodiy manfaatlar nuqtayi nazaridan emas, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlar asosida baholashga xizmat qiladi. Ekologik adolat konsepsiyasiga ko'ra, tabiat ne'matlaridan foydalanish jarayonida nafaqat bugungi avlod, balki kelajak avlodlarning manfaatlari ham hisobga olinishi zarur[5].

So'nggi yillarda ekologik falsafa, suv etikasi va barqaror rivojlanish nazariyalarida suv resurslarini boshqarishning axloqiy jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Suv insoniyatning umumiy boyligi sifatida e'tirof etilib, undan foydalanishda tenglik, hamkorlik va mas'uliyat tamoyillariga amal qilish zarurligi ta'kidlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan transchegaraviy gidroresurslardan foydalanishda ekologik adolat tamoyilining falsafiy asoslarini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi transchegaraviy gidroresurslardan foydalanishda ekologik adolat tamoyilining falsafiy mazmunini ochib berish, uning barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rnini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida ekologik adolat tushunchasining nazariy asoslarini aniqlash, suv etikasi va avlodlararo mas'uliyat g'oyalarining mohiyatini yoritish hamda transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda ekologik adolat tamoyilining amaliy ahamiyatini asoslash belgilandi[6].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda transchegaraviy gidroresurslardan foydalanish masalasi ekologik adolatning falsafiy konsepsiyasi asosida tahlil qilinib, suv resurslarini boshqarishda adolat, mas'uliyat va hamkorlik tamoyillarining o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, ekologik adolatning transchegaraviy suv resurslarini boshqarishdagi ma'naviy va aksiologik asoslari ochib beriladi.

Markaziy Osiyo mintaqasida Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish masalalari nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki falsafiy hamda axloqiy muammo sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan ekologik adolat tamoyilining mazmunini ochib berish va uning transchegaraviy gidroresurslarni boshqarishdagi o'rnini aniqlash dolzarb ilmiy vazifalardan hisoblanadi[7].

Ekologik adolat nazariyasi XX asrning 70–80-yillarida shakllana boshlagan bo'lib, uning nazariy manbalari ijtimoiy adolat konsepsiyalariga borib taqaladi. Adolat tushunchasining zamonaviy talqinida J. Rawlsning ijtimoiy tenglik va imkoniyatlar adolati haqidagi qarashlari alohida o'rin tutadi. Rawls adolatni jamiyat institutlarini tashkil etuvchi asosiy tamoyil sifatida baholagan.

D. Schlosberg ekologik adolatni ekologik ne'matlar va ekologik xavflarning adolatli taqsimlanishi bilan bog'laydi. Uning fikricha, ekologik adolat faqat resurslarni taqsimlash bilan cheklanmay, balki ishtirok etish va e'tirof etilish tamoyillarini ham o'z ichiga oladi.

K. Bosselmann va B. Norton barqaror rivojlanishning falsafiy asoslarini ishlab chiqib, tabiat va inson manfaatlarining uyg'unligini ekologik siyosatning markaziy tamoyili sifatida ko'rsatadilar. Zamonaviy suv etikasi bo'yicha tadqiqotlarda esa suv resurslari iqtisodiy boylik emas, balki umuminsoniy qadriyat sifatida talqin qilinmoqda[8].

So'nggi yillarda UNESCO, UNECE va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan hisobotlarda transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda adolat, hamkorlik va mas'uliyat tamoyillari ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilgan.

Tadqiqot davomida falsafiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ekologik adolat, suv etikasi va barqaror rivojlanish konsepsiyalari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Shuningdek, transchegaraviy gidroresurslarni boshqarishga oid xalqaro hujjatlar ham nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari ekologik adolat tamoyilining transchegaraviy gidroresurslardan foydalanishda quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

Birinchidan, ekologik adolat davlatlarning suv resurslaridan foydalanish huquqlarini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Bunda har bir davlatning manfaatlari e'tiborga olinishi bilan bir qatorda umumiy ekologik manfaatlar ham hisobga olinadi.

Ikkinchidan, ekologik adolat ekologik mas'uliyat tamoyilini shakllantiradi. Suv resurslarining ifloslanishi yoki samarasiz foydalanilishi oqibatlari barcha davlatlarga ta'sir ko'rsatishi sababli mas'uliyat ham umumiy bo'lishi lozim.

Uchinchidan, ekologik adolat avlodlararo mas'uliyat g'oyasiga asoslanadi. Kelajak avlodlarning suv resurslariga bo'lgan ehtiyojlari bugungi qarorlar qabul qilish jarayonida inobatga olinishi zarur.

To'rtinchidan, ekologik adolat ekologik xavfsizlikning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Suv resurslarini adolatli boshqarish mintaqaviy barqarorlik va tinchlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Falsafiy nuqtayi nazardan ekologik adolat inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning yangi modelini shakllantiradi. An'anaviy antropotsentrik yondashuv tabiatni inson ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida baholagan bo'lsa, zamonaviy ekologik falsafa tabiatning o'ziga xos qadriyatga egaligini e'tirof etadi.

Suv etikasi konsepsiyasi ham aynan shu g'oyaga asoslanadi. Suv inson hayotining biologik asosi bo'lish bilan birga, madaniy va ma'naviy qadriyat sifatida ham ahamiyatga ega. Shu sababli transchegaraviy gidroresurslarni boshqarishda faqat iqtisodiy manfaatlarga asoslangan qarorlar yetarli emas.

Markaziy Osiyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, suv resurslari bilan bog'liq masalalarni hal etishda o'zaro ishonch, muloqot va hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik adolat mazkur hamkorlikning ma'naviy negizini tashkil etadi. U davlatlar manfaatlarini qarama-qarshi qo'yish emas, balki umumiy ekologik mas'uliyat asosida birlashtirishga xizmat qiladi.

Ekologik adolatning yana bir muhim jihatini uning aksiologik mohiyatida namoyon bo'ladi. Bu tamoyil suv resurslarini iqtisodiy kapital emas, balki umuminsoniy qadriyat sifatida baholashga undaydi. Natijada tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabat shakllanadi va ekologik ong rivojlanadi.

Transchegaraviy gidroresurslardan foydalanishda ekologik adolat tamoyili zamonaviy ekologik falsafaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tamoyil suv resurslarini boshqarishda tenglik, mas'uliyat, hamkorlik va barqarorlik g'oyalarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Ekologik adolatning falsafiy mohiyati inson, jamiyat va tabiat manfaatlarining uyg'unligini ta'minlashdan iboratdir. Shu bois transchegaraviy gidroresurslarni boshqarish jarayonida ekologik adolat tamoyillarini amaliyotga joriy etish nafaqat ekologik xavfsizlikni, balki mintaqaviy barqarorlik va barqaror rivojlanishni ham ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rawls J. A Theory of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 1971.
2. Schlosberg D. Defining Environmental Justice: Theories, Movements and Nature. – Oxford University Press, 2007.
3. Sen A. The Idea of Justice. – London: Penguin Books, 2009.
4. Bosselmann K. The Principle of Sustainability: Transforming Law and Governance. – Routledge, 2016.
5. Norton B. Sustainability: A Philosophy of Adaptive Ecosystem Management. – University of Chicago Press, 2005.